O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UO‘K: 811.133.1’25:659.1

Sohiba A. YUNUSOVA,
PhD, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: sohibayunusova007@gmail.com, ORCID: 0009-0007-4456-195X

Alfraganus Universiteti v.b. professori, A.Xolboboyeva taqrizi asosida

THE COMMUNICATIVE-INTENTIONAL ORIENTATION OF POLITICAL DISCOURSE AND ITS CHARACTERISTIC SPEECH ACTS

Abstract

This article is devoted to identifying the communicative-intentional orientation of political discourse and analysing the linguopragmatic features of speech acts employed within it. The main objective of the study is to identify the ways in which communicative intentions are expressed in political speech, classify the speech acts used by political actors to exert influence on the addressee, and reveal their pragmatic functions. The objectives of the study include identifying the use of representative, directive, commissive, expressive, and declarative speech acts in political discourse, analysing their relationship with communicative goals and intentions, and examining the linguopragmatic devices that ensure the persuasive and influential character of political speech.

Key words: political discourse, communicative-intentional orientation, speech act, communicative strategy, communication, addressee, addresser, influence, linguopragmatic analysis.

КОММУНИКАТИВНО-ИНТЕНЦИОНАЛЬНАЯ НАПРАВЛЕННОСТЬ ПОЛИТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА И ХАРАКТЕРНЫЕ ДЛЯ НЕГО РЕЧЕВЫЕ АКТЫ

Аннотация

В данной статье рассматриваются выявлению коммуникативно-интенциональной направленности политического дискурса и анализу лингвопрагматических особенностей речевых актов, используемых в нём. Основная цель исследования заключается в выявлении способов выражения коммуникативных интенций в политической речи, классификации речевых актов, используемых политическими субъектами для оказания воздействия на адресата, а также раскрытии их прагматических функций. Задачи исследования предусматривают выявление особенностей употребления репрезентативных, директивных, комиссивных, экспрессивных и декларативных речевых актов в политическом дискурсе, анализ их взаимосвязи с коммуникативными целями и интенциями, а также рассмотрение лингвопрагматических средств, обеспечивающих убедительность и воздействующий характер политической речи.

Ключевые слова: политический дискурс, коммуникативно-интенциональная направленность, речевой акт, коммуникативная стратегия, коммуникация, адресат, адресант, воздействие, лингвопрагматический анализ.

SIYOSIY DISKURSNING KOMMUNIKATIV-INTENSIONAL YO‘NALISHI VA UNGA XOS NUTQIY AKTLAR

Annotatsiya

Mazkur maqola siyosiy diskursning kommunikativ-intensional yo‘nalishini aniqlash hamda unda qo‘llaniluvchi nutqiy aktlarning lingvopragmatik xususiyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi siyosiy nutqda kommunikativ-intensional maqsadlarning ifodalanish xususiyatlarini aniqlash, siyosiy subyektlarning adresatga ta’sir ko‘rsatish jarayonida qo‘llaydigan nutqiy aktlarini tasniflash va ularning pragmatik funksiyalarini ochib berishdan iborat. Tadqiqot vazifalari siyosiy diskursda reprezentativ, direktiv, komissiv, ekspressiv va deklarativ nutqiy aktlarning qo‘llanish xususiyatlarini aniqlash, ularning kommunikativ maqsad va intension bilan bog‘liqligini tahlil qilish hamda siyosiy nutqning ta’sirchanligini ta’minlovchi lingvopragmatik vositalarni yoritishni nazarda tutadi.

Kalit so‘zlar: siyosiy diskurs, kommunikativ-intensional yo‘nalish, nutqiy akt, kommunikativ strategiya, kommunikatsiya, adresat, adresant, ta’sir, lingvopragmatik tahlil.

Kirish. Siyosiy diskursni nutqiy faoliyat sifatida talqin qilish uni ommaviy siyosiy nutq janri bilan o‘zaro bog‘lash imkonini beradi. Mazkur yondashuvda siyosiy diskursning janriy xususiyatlari, avvalo, uning intensionallik yo‘nalishi, kommunikativ maqsadi hamda ushbu maqsadni ro‘yobga chiqarishga xizmat qiluvchi nutqiy aktlar tizimi bilan belgilanadi. Binobarin, ommaviy siyosiy nutq shunchaki axborot uzatish vositasi emas, balki muayyan siyosiy-kommunikativ maqsadni amalga oshirishga yo‘naltirilgan pragmatik jihatdan tashkil etilgan nutqiy faoliyatdir.

Mazkur jarayonda intensiya tushunchasi alohida nazariy ahamiyat kasb etadi. Intensiya — nutqiy faoliyatdan avval shakllanadigan, anglangan kognitiv-kommunikativ niyat bo‘lib, u nutqning mazmuniy-propozitsional komponentini, kommunikativ dasturini, uslubiy tanlovini, ushbu dasturni amalga oshirish usullarini hamda matnning umumiy kompozitsion rejasini belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Shu ma’noda intensiya nutqiy faoliyatning ichki konseptual asosini tashkil etib, kommunikatorning “nima demoqchi?”, “nima maqsadda demoqchi?” va “adresatga qanday ta’sir ko‘rsatmoqchi?” kabi savollarga javob beruvchi kognitiv-pragmatik mexanizmini ifodalaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Intensiya nutqning tashqi verbal shaklidan oldin yuzaga keladigan mental jarayon sifatida nutqiy faoliyatning keyingi bosqichlarini dasturlashtiradi. Xususan, kommunikatorning ko‘zlagan maqsadi asosida mavzuni tanlash, axborotni strukturalashtirish, til birliklarini saralash, uslubiy vositalarni belgilash, argumentativ strategiyani shakllantirish va matnning kompozitsion tuzilishini tashkil etish jarayonlari amalga oshiriladi. Shu sababli intensiyani siyosiy diskursning kommunikativ-pragmatik strukturasini shakllantiruvchi

boshlang‘ich va determinatsiyalovchi omillardan biri sifatida baholash mumkin.

J.Syorl intensiya tushunchasini inson ongining fundamental tarkibiy qismlaridan biri sifatida ko‘rib, uni ko‘plab mental holatlar va hodisalarning tashqi dunyodagi obyektlar hamda voqelik holatlariga yo‘naltirilganligini ta’minlovchi xususiyat sifatida talqin qiladi [Syorl J., 1986; 170-194]. Ushbu nazariy qarashga ko‘ra, insonning mental holatlari muayyan obyekt, hodisa yoki voqelik holatiga yo‘nalgan bo‘lib, aynan mana shu yo‘nalganlik uning keyingi kommunikativ faoliyatida verbal shaklga ega bo‘lishi mumkin.

Siyosiy diskursning intensionalligi kommunikatorning individual kognitiv niyati bilan siyosiy-kommunikativ vaziyatning obyektiv talablari kesishgan nuqtada shakllanadi. Intensiya nutqning mazmuniy yo‘nalishini belgilabgina qolmay, balki uning pragmatik samaradorligini ta’minlovchi lingvistik vositalar, argumentativ modellar va kommunikativ strategiyalarning tanlanishiga ham asos bo‘ladi. Demak, ommaviy siyosiy nutqni lingvopragmatik jihatdan tadqiq etishda intensiya, kommunikativ maqsad, nutqiy akt, strategiya va taktika kategoriyalarining o‘zaro munosabatini aniqlash siyosiy diskursning ta’sirchanlik mexanizmlarini ochib beruvchi muhim nazariy omillardan biri hisoblanadi.

Nutqiy akt — muayyan jamiyatda qabul qilingan nutqiy xulq-atvor tamoyillari va me’yorlariga muvofiq ravishda amalga oshiriladigan, aniq kommunikativ maqsadga yo‘naltirilgan nutqiy harakatdir. U pragmatik vaziyat doirasida voqelashadigan va ijtimoiy jihatdan me’yorlashtirilgan nutqiy xulq-atvorning muayyan birligi sifatida namoyon bo‘ladi [Syorl J., 1986; 194]. Shu ma’noda nutqiy aktni faqat til birliklarining verbal realizatsiyasi sifatida emas, balki kommunikatorning muayyan vaziyatda ma’lum bir kommunikativ maqsadni amalga oshirishga qaratilgan ongli va ijtimoiy jihatdan shartlangan harakati sifatida baholash lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Nutqiy aktning asosiy belgilari sifatida intensionallik, maqsadlilik va konventsionallik ajratiladi. Intensionallik nutqiy harakatning muayyan kommunikativ niyat asosida amalga oshirilishini anglatadi. Ya’ni kommunikator nutq orqali shunchaki axborot uzatmaydi, balki adresatga ta’sir ko‘rsatish, uni muayyan fikrga ishontirish, harakatga undash, baho berish yoki munosabatini o‘zgartirish kabi aniq maqsadlarni ko‘zlaydi. Maqsadlilik nutqiy aktning kommunikativ vazifaga yo‘naltirilganligini ifodalaydi va uning mazmuni hamda shaklining tanlanishini belgilaydi. Konventsionallik esa nutqiy aktning muayyan lingvistik, ijtimoiy va madaniy me’yorlar asosida amalga oshirilishini anglatadi. Demak, nutqiy aktning muvaffaqiyatli voqelanishi nafaqat kommunikatorning individual niyatiga, balki mazkur jamiyatda shakllangan kommunikativ konvensiyalar va nutqiy xulq-atvor qoidalariga ham bog‘liq.

Tahlil va natijalar. Pragmatik yondashuv nuqtayi nazaridan nutqiy akt adresant, adresat, kommunikativ maqsad, vaziyat, kontekst va nutqiy harakatning kutilayotgan natijasi o‘rtasidagi o‘zaro munosabat asosida shakllanadi. Shu sababli bir xil lingvistik shakl turli kommunikativ vaziyatlarda turlicha pragmatik mazmun kasb etishi mumkin. Binobarin, nutqiy aktning mohiyatini aniqlashda uning formal ifodasidan tashqari, kim tomonidan, kimga, qanday vaziyatda, qanday maqsadda va qanday kommunikativ natijani ko‘zlab amalga oshirilganini ham hisobga olish zarur.

Nutqiy aktlarning ketma-ket va o‘zaro bog‘langan holda voqelanishi natijasida diskurs shakllanadi. Biroq diskursni nutqiy aktlarning mexanik yig‘indisi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq emas. Nutqiy aktlar o‘zaro semantik, pragmatik, mantiqiy va kontekstual munosabatlar asosida birikib, yaxlit kommunikativ tuzilmani hosil qiladi. Shu jihatdan diskurs nutqiy aktlarning izchil tashkil topishi va yagona kommunikativ maqsad atrofida birlashishi natijasida yuzaga keladigan murakkab kommunikativ hodisa sifatida tavsiflanadi.

Ayniqsa, siyosiy diskurs doirasida nutqiy aktlar muayyan siyosiy-kommunikativ strategiyalarni amalga oshirishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Siyosiy kommunikator axborot berish, ishontirish, va’da berish, da’vat etish, tanqid qilish, baholash, ogohlantirish, legitimlashtirish yoki siyosiy safarbarlikni ta’minlash kabi maqsadlarni turli nutqiy aktlar orqali amalga oshiradi. Shu bois siyosiy diskursni lingvopragmatik jihatdan tadqiq etishda nutqiy aktlarning turi, kommunikativ maqsadi, intensionalligi, adresatga yo‘naltirilganligi va siyosiy strategiyalarni amalga oshirishdagi funksional imkoniyatlarini aniqlash muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Shunday qilib, nutqiy akt kommunikativ maqsad, intensionallik va ijtimoiy-konventsional me’yorlar asosida amalga oshiriladigan minimal pragmatik birlik, diskurs esa ana shunday birliklarning o‘zaro bog‘langan, kontekstual jihatdan shartlangan va funksional jihatdan yaxlit tizimi sifatida qaralishi mumkin. Mazkur nisbat nutqiy akt va diskurs o‘rtasidagi uzviy aloqani belgilab, siyosiy kommunikatsiyada alohida nutqiy harakatlardan yaxlit siyosiy-kommunikativ strategiyalargacha bo‘lgan jarayonni izchil tahlil qilish imkonini beradi.

Nutqiy akt — nutqiy muloqotning minimal kommunikativ birligi bo‘lib, muayyan kommunikativ sharoitda, belgilangan maqsad va vaziyat doirasida konkret gapning hosil qilinishi va voqelantirilishini anglatadi. U mazkur jamiyatda shakllangan hamda nutqiy faoliyatni tartibga soluvchi konstitutiv qoidalar majmuiga muvofiq amalga oshiriladigan maqsadli kommunikativ harakat sifatida namoyon bo‘ladi [Shmeleva T., 1993; 33].

Nutqiy aktning mohiyati faqat ma’lum bir gapning grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilishi bilan belgilanmaydi. Gapning nutqiy akt sifatida voqelanishi uchun u muayyan kommunikativ vaziyatda, muayyan adresant va adresat o‘rtasidagi munosabat doirasida hamda aniq kommunikativ niyat asosida qo‘llanishi lozim. Shu sababli bir xil lingvistik shakl turli vaziyatlarda turlicha kommunikativ va pragmatik funksiyani bajarishi mumkin.

Nutqiy aktning konstitutiv qoidalar asosida amalga oshirilishi uning ijtimoiy-konvensional tabiatini belgilaydi. Mazkur qoidalar muayyan nutqiy harakatning qanday sharoitlarda o‘rinli va kommunikativ jihatdan muvaffaqiyatli hisoblanishini belgilab beradi. Demak, nutqiy akt til tizimining formal imkoniyatlarini real kommunikativ faoliyat bilan bog‘lovchi pragmatik birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu nuqtayi nazardan, nutqiy aktni muayyan shart-sharoitlarda, konstitutiv qoidalar asosida va kommunikativ niyat bilan amalga oshiriladigan minimal nutqiy-kommunikativ harakat sifatida ta’riflash mumkin. Ushbu birliklarning o‘zaro izchil va mazmuniy jihatdan bog‘langan holda qo‘llanishi esa yuqori darajadagi kommunikativ tuzilma — diskursning shakllanishini ta’minlaydi.

Tilshunoslikda ayrim tadqiqotchilar “nutqiy janr” tushunchasini nutqiy aktlar nazariyasida qo‘llaniladigan “nutqiy akt” atamasi bilan o‘zaro bog‘liq holda talqin qiladilar va mazkur ikki tushunchani muayyan darajada analogik hodisalar sifatida qaraydilar [Sheygal E., 2000; 280]. Bunday yondashuv, avvalo, har ikkala tushunchaning muayyan kommunikativ vaziyatda amalga oshiriladigan, aniq kommunikativ maqsadga ega bo‘lgan nutqiy faoliyat shakllarini ifodalashi bilan izohlanadi.

Shunga qaramay, “nutqiy janr” va “nutqiy akt” tushunchalarini to‘liq sinonim yoki mutlaq analog sifatida qabul qilish metodologik jihatdan ehtiyotkorlikni talab etadi. Nutqiy akt, odatda, muayyan kommunikativ maqsadni amalga oshiruvchi nisbatan minimal nutqiy harakatni ifodalasa, nutqiy janr kommunikativ faoliyatning ijtimoiy va madaniy jihatdan shakllangan, nisbatan barqaror kompozitsion, mazmuniy va

uslubiy modelini anglatadi. Shu sababli nutqiy janr bir yoki bir nechta nutqiy aktlarning izchil birikmasi asosida shakllanishi mumkin.

Mazkur farqlanish ayniqsa siyosiy diskursni tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega. Siyosiy nutq, siyosiy murojaat, saylovoldi nutqi, parlament nutqi yoki siyosiy bayonot kabi janrlar tarkibida va’da berish, da’vat etish, ishontirish, ogohlantirish, baholash, tanqid qilish kabi turli nutqiy aktlar kompleks tarzda voqelanishi mumkin. Demak, nutqiy akt siyosiy diskursning mikropragmatik birligi sifatida namoyon bo‘lsa, nutqiy janr ushbu aktlarning ijtimoiy-kommunikativ jihatdan tashkil topgan makrostrukturaviy modelini ifodalaydi.

Shu nuqtayi nazardan, nutqiy akt va nutqiy janr o‘rtasidagi munosabatni “minimal kommunikativ harakat — ijtimoiy jihatdan shakllangan kommunikativ model” tamoyili asosida izohlash maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv mazkur tushunchalarning o‘zaro aloqadorligini saqlab qolgan holda, ularning funksional va strukturaviy farqlarini ham aniq belgilash imkonini beradi.

Siyosiy diskurs janrlarini yetakchi kommunikativ intensiya xarakteriga ko‘ra tasniflashda E.I. Sheygal muhim ilmiy yondashuvni taklif etadi. Tadqiqotchi siyosiy kommunikatsiyada voqelashadigan janrlarni ularning dominant kommunikativ niyati va pragmatik yo‘nalishidan kelib chiqib, ritual (epideyktik), orientatsion va agonistik janrlarga ajratadi. Mazkur tasnif siyosiy diskursning janriy xilma-xilligini kommunikativ maqsad va nutqiy ta’sir mexanizmlari bilan bog‘liq holda izohlash imkonini beradi.

Ritual (epideyktik) janrlar.

Ushbu guruhga inauguratsion nutq, yubiley munosabati bilan so‘zlanadigan nutq, an’anaviy radio murojaat kabi janrlar kiradi. Mazkur janrlarda asosiy kommunikativ vazifa fatik-integrativ funksiyani amalga oshirish, ya’ni kommunikativ aloqa va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash, mavjud qadriyatlarni tasdiqlash hamda siyosiy hamjamiyatning umumiy identifikatsiyasini shakllantirishdan iborat. Bunday nutqlarda axborot berishdan ko‘ra, kommunikativ aloqani qo‘llab-quvvatlash, umumiy qadriyatlarni e’tirof etish va auditoriyani muayyan ijtimoiy-siyosiy birlik atrofida birlashtirish ustuvorlik qiladi.

Orientatsion janrlar.

Mazkur guruhga axborot-preskriptiv xarakterga ega bo‘lgan siyosiy matnlar, jumladan, partiya dasturi, konstitutsiya, prezidentning mamlakatdagi vaziyat to‘g‘risidagi murojaati, hisobot ma’ruzasi, farmon va bitimlar kiradi. Ushbu janrlarning asosiy kommunikativ yo‘nalishi siyosiy voqelikni izohlash, tartibga solish, muayyan yo‘nalish belgilash va adresatning faoliyatini ma’lum me’yorlar asosida yo‘naltirish bilan bog‘liq. Shu sababli orientatsion janrlarda informativ va direktiv-pragmatik komponentlar o‘zaro uyg‘unlashadi.

Agonistik janrlar.

Agonistik janrlar siyosiy kommunikatsiyaning raqobat, qarama-qarshilik va kurash komponentlari ustuvor bo‘lgan shakllarini qamrab oladi. Ularga siyosiy shior, reklama nutqi, saylovoldi debatlari va parlament debatlarini misol qilish mumkin. Mazkur janrlarda kommunikatorning asosiy maqsadi o‘z siyosiy pozitsiyasini ilgari surish, raqibning qarashlarini rad etish yoki zaiflashtirish, auditoriyani o‘z tomoniga og‘dirish hamda siyosiy raqobatda ustunlikka erishishdan iborat bo‘ladi. Shu bois ularda argumentatsiya, baholash, persvaziya va manipulyativ ta’sir vositalarining faol qo‘llanishi kuzatiladi.

E.I. Sheygalning mazkur tasnifi fransuz siyosiy diskursini keng doirada tadqiq etishimizda alohida ilmiy ahamiyatga ega. Biroq ushbu tasnifda siyosiy kommunikatsiyaning og‘zaki va yozma shakllari o‘rtasidagi o‘ziga xosliklar alohida mezon sifatida hisobga olinmagan. Holbuki, og‘zaki siyosiy diskursda intonatsiya, pauza, ovoz tembri, mimika, jest va boshqa paralingvistik vositalar muhim pragmatik yuklamaga ega bo‘lsa, yozma siyosiy diskursda grafik, kompozitsion va matnstrukturaviy vositalarning roli kuchayadi. Shu sababli janr tasnifini amalga oshirishda kommunikatsiyaning shakliy parametrlari ham qo‘shimcha mezon sifatida e’tiborga olinishi maqsadga muvofiq.

Shuningdek, nutqiy akt funksiyasi va siyosiy diskurs intensionalligini aynan bir xil tushunchalar sifatida qarash metodologik jihatdan to‘g‘ri emas. Ular o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lsa-da, turli nazariy sathlarni ifodalaydi. Funksiya, avvalo, nutqiy harakatning adresatga ko‘rsatadigan ta’siri, kommunikativ jarayonda bajaradigan vazifasi va natijasi bilan bog‘liq bo‘lsa, intensiya nutq subyektining ichki kommunikativ maqsadi, kognitiv yo‘nalganligi, mental holati va oldiga qo‘ygan kommunikativ vazifalari bilan bevosita aloqadordir.

Boshqacha qilib aytganda, intensiya kommunikator nuqtayi nazaridan, funksiya esa ko‘proq adresat va kommunikativ natija nuqtayi nazaridan tavsiflanadi. Kommunikator muayyan intensiyaga ega holda nutqiy faoliyatni amalga oshiradi, ushbu intensiya asosida muayyan lingvistik vositalar va nutqiy strategiyalarni tanlaydi, natijada nutqiy akt adresatga ma’lum kommunikativ ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, intensiya → nutqiy strategiya va vositalar → nutqiy akt → kommunikativ ta’sir tarzidagi o‘zaro bog‘liq jarayon siyosiy diskursning pragmatik mexanizmini tushuntirishga imkon beradi.

Mazkur farqlash siyosiy diskursni lingvopragmatik o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Kommunikativ intensiya strategiya tanlovini, nutqiy aktning funksional xususiyati esa uning adresatga ta’sirini belgilaydi. Shu jihatdan E.I. Sheygalning janriy tasnifi siyosiy diskursning strukturaviy va funksional xususiyatlarini o‘rganishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Nutqiy diskursning intensionalligini tahlil qilish esa uning semantik, pragmatik va kommunikativ jihatlarini kompleks o‘rganishni talab etadi, chunki nutqiy akt kommunikatorning niyati, maqsadi va kutilayotgan ta’sirini mujassam etgan murakkab pragmatik jarayondir.

Xulosa va takliflar. Siyosiy diskurs kommunikativ maqsad, siyosiy subyektning niyati va adresatga ta’sir ko‘rsatish strategiyalari bilan bog‘liq murakkab nutqiy hodisadir. Siyosiy kommunikatsiyada nutqiy aktlar axborot yetkazish, siyosiy pozitsiyani ifodalash, ishontirish, harakatga undash, baholash, va’da berish va ogohlantirish orqali adresat qarashlariga ta’sir ko‘rsatish vazifalarini bajaradi. Siyosiy diskursning kommunikativ-intensional yo‘nalishi reprezentativ, direktiv, komissiv, ekspressiv va deklarativ nutqiy aktlar orqali namoyon bo‘ladi. Reprezentativ aktlar siyosiy voqea-hodisalarga munosabatni, direktiv aktlar harakatga undashni, komissiv aktlar va majburiyatlarni, ekspressiv aktlar hissiy munosabat va bahoni, deklarativ aktlar esa siyosiy yoki ijtimoiy voqelikdagi o‘zgarishlarni ifodalaydi. Ushbu nutqiy aktlarni pragmatik jihatdan tahlil qilish siyosiy nutqning ochiq va yashirin maqsadlarini, auditoriyaga ta’sir mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi. Demak, siyosiy diskursning kommunikativ-intensional yo‘nalishi nutqiy aktlar, kommunikativ strategiyalar va pragmatik ta’sirning o‘zaro aloqasi asosida shakllanadi.

ADABIYOTLAR

1. Серль Дж. Классификация иллокутивных актов // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17. – М.: Прогресс, 1986. – 423 с.
2. Yunusova S.A. Zamonaviy diskurs tadqiqotlarida lingvopragmatik tahlilning nazariy asoslari va metodologik imkoniyatlari // Til va adabiyot.uz. – Toshkent, 2026. – № 14. – B. 11–12.
3. Шмелева Т.В. Ключевые слова текущего момента // Collegium. №1. – Киев, 1993. – С. 33 – 41.